




# JAMOAT SALOMATLIGI

Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot institutining ijtimoiy-tibbiy gazetasi



31-  
yanvar  
2023-yil  
seshanba

№1 (17)

Bugun tibbiyot sohasida malakali kadrlar tayyorlash, sifatli ta'lim berishda Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Hozirda institutning davolash ishi fakulteti talabalari USMLE ta'lim dasturi bo'yicha malakali shifokor ustozlardan bilim olmoqdalar. Ma'lumki, ushbu dastur uch bosqichdan iborat bo'lib, barcha bosqichlardan muvaffaqiyatli o'tgan talabalar AQShda shifokor bo'lib ishlash lisenziyasini qo'lga kiritish imkoniyatiga ega.



# USMLE

## ZAMONAVIY BILIM, IMKONIYAT VA TAJRIBA



# ZAMONAVIY BILIM, IMKONIYAT VA TAJRIBA

# USMLE

United States Medical Licensing Examination

## Davomi. Boshi 1-betda

**Ta'lim muassasasida xalqaro darajadagi talabalar va shifokorlar bilan bemaolol bellasha oladigan, zamonaviy tibbiyot bo'yicha eng so'nggi bilimlarga ega kadrlarni tayyorlash maqsadida respublikada ilk marotaba Amerika ta'lim dasturiga asoslangan o'quv kurslari joriy etildi.**

—Bugungi kunda institutda USMLE ta'lim dasturi asosida talabalarga dars berib kelmoqdamiz, — deydi USMLE kafedrasida o'qituvchisi Shoxrux Suyarov. — Deyarli barcha adabiyotlar ingliz tilida bo'lganligi sababli o'quv jarayonlari o'zbek, rus, ingliz tillarida, o'quv-ko'rgazmali va taqdimotli dars mashg'ulotlari olib boriladi. Hozirda davolash fakultetining 1-2 bosqichida tahsil olayotgan 600 nafarga yaqin talabalarga 11 nafar yosh, malakali o'qituvchilar dars berib kelmoqda. Barchasida IELTS sertifikati bor.



O'quv mashg'ulotlari vaqtida ko'proq klinik vaziyatlarga e'tibor beriladi. Anatomiya yoki fiziologiya fani o'tilayotgan bo'lsa, masalan, yurak yoki nafas tizimi mavzusi bo'ladimi, tarkibiga patologiya ham qo'shiladi, 1-bosqichdanoq turli kasalliklar bilan tanishib boradi. Odatiy dasturda esa faqatgina tizimli anatomiya o'qitiladi. Umumiy tuzilishi haqida tushuntirib ketiladi. A'zolariga tegishli kasalliklar va patologik jarayonlar haqida deyarli aytilmaydi.

Institutda "Step 1-2" bo'yicha o'qitiladi. Asosiy maqsadimiz barcha adabiyotlar, qo'llanmalarining 60-70 foizi ingliz tilida yozilganligi sababli ingliz tilini mukammal o'zlashtirishdan iboratdir.

Kelajakda mana shu dastur asosida xalqaro olimpiada tashkil etmoqchimiz.

Xabaringiz bo'lsa, o'tgan yili oliygohda respublikada ilk marotaba embriologiya hamda anatomiya fanlari olimpiadasi o'tkazilgan edi. Unda 7 ta guruh 3 ta shart bo'yicha bellashib, AQSh ta'lim dasturiga asoslangan blis savollar ingliz tilida berilgan va guruhlar hozirjavoblik bilan olgan bilimlarini namoyon etishgan. Ikkinchi shartda illyustrativ rasmlar orqali kasallikka tashxis qo'yish va uchinchi shartda klinik vaziyatlarni to'g'ri yechish vazifasi qo'yilgan. Talabalar barchasini a'lo darajada uddalagan edilar.



—Bugungi kunda sog'liqni saqlash, xususan, tibbiy oliy ta'lim tizimini ilg'or xorijiy tajriba asosida rivojlantirish ijobiy natija bermoqda, — deydi mazkur kafedra o'qituvchisi Denis Abdulvaliev. — Institut mamlakatimizda yagona bo'lgan, dunyo tan olgan The United States Medical Licensing Examination (USMLE) ta'lim dasturi asosida ta'lim berayotgan institut hisoblanadi. Talabalarni jahon standartlari asosida bilim olishlari uchun jihozlangan simulyasion markaz, vivariy, ilmiy-amaliy laboratoriyalarda zaruriy sharoitlar yaratilgan.

Dasturning yana bir afzalliklaridan biri kasalliklarning oldini olish, tashxislashga o'rgatish hamda klinik fikrlash, kasallik va uning belgilarini asoslash uchun zamin yaratib berishdan iborat. Men o'zim milliy dastur asosida o'qigan talaba sifatida shuni aytmoqchimanki, bu dasturlar bir-biridan juda katta farq qiladi. Talabalarning ta'lim dasturiga munosabati boshqacha, qiziqishi yuqori.

Ochiq aytaman, milliy dasturning kamchiliklaridan biri unda ba'zi mavzular alohida o'tiladi. Masalan, anatomiya va fiziologiya fanlari 1-2 bosqichlarda o'qitiladi.

Fiziologiya anatomiya fani bilan

chambarchas bog'liqdir, chunki anatomiya a'zolarining tuzilishini, ularning vazifasiga bog'liq holda shakllanib borishini o'rgatadi. Talaba anatomiya fanida o'tgan mavzularini patologiyasiga kelguncha yodidan chiqarib yuborishi mumkin.

USMLE dasturida esa ikki mavzu parallel o'tiladi. Tibbiyoti rivojlangan AQSh, Isroil kabi davlatlarda problem based medicine, ya'ni muammo o'rtaga tashlanadi. U talabami, shifokormi o'sha muammoni hal qilishi zarur bo'ladi. Olgan bilimidan foydalanib, shifokorda tizimli fikrlash ko'nikmasi paydo bo'ladi. O'qishni hozirgi an'anaviy dasturda tamomlagan talabalarning ko'pchiligidan klinik fikrlash rivojlanmagan.

Kelajakda talabalarning hammasi ham o'qituvchi bo'lmaydi, shifokor bo'ladi! Shuning uchun, bu dastur boshqa dasturlardan ustun deb hisoblayman. O'zim milliy dasturda o'qigan talaba sifatida shuni aytishim mumkinki, farq juda katta.

Bugungi kunda dars jarayoniga tayyorgarlik ko'rish maqsadida, har kuni 6-8 soatlab o'z ustimizda ishlamasak, talabalarga mana shu dasturni yetkazib berish oson bo'lmaydi. Bu dasturiy qo'llanmalarga har yili yangiliklar, qo'shimchalar kiritiladi. Bu esa bilim jihatdan o'qituvchiga qo'shimcha ham yuklama, ham talab qo'yadi.



—Ta'lim dasturining barchasi zamonaviy. Mavzular tushunarli ifodalangan, zarur ma'lumotlar saralab berilgan, — deydi davolash ishi fakulteti talabasi Aslonbek Bafoyev. —Har bir ma'lumot yaxshiroq o'zlashtirilishi uchun suratlar va chizmalar bilan boyitilgan, ilg'or ta'lim metodologiyalari asosida chuqur o'rgatiladi. Shuning uchun bu dasturni kursdosh do'stlarim bilan qiziqib o'qimoqdamiz.

Kafedra o'qituvchisi D.Abdulvalievning ta'kidlashicha, mamlakatimizda o'qitilayotgan dasturlar qisman sovet ittifoqida yozilgan qo'llanmalar asosida yaratilgan. Adabiyotlar eskirgan. AQSh dasturi esa deyarli har yili yangilanib boradi. Sababi, sohada ilmiy ishlar yoziladi, turli yo'nalishlarda taqdimotlar qilinadi va bular barchasi mazkur dasturga yozilib, o'qish metodikasiga kiritilib boriladi.

Ikkinchi bosqich talabalarimizda hozirdanoq mavzuga chuqur yondashuv, kasalliklar haqida ma'lum bir yangicha fikrlar shakllangan.

Xullas, oliygohda imkoniyatlardan to'g'ri foydalangan holda, zamonaviy tibbiy ta'limni yanada rivojlantirish, iqtidorli va raqobatbardosh kadrlar tayyorlashda islohotlar davom etmoqda.

**I.ABDUJABBOROV.**





# USMLE o'zi nima?

**USMLE - United States Medical Licensing Examination (Amerika Qo'shma Shtatlarining Tibbiyot Litsenziyasi uchun Imtihoni)**

**AQShda shifokorlik faoliyati bilan shug'ullanish istagini bildirgan shaxslar litsenziya olishi shart. Ushbu litsenziyani faqat imtihon topshirish orqali olish mumkin.**

**Bu litsenziya nafaqat AQShda, balki qator rivojlangan mamlakatlarda ham tan olinadi. Bu degani, Siz USMLE imtihonlarini topshirib, Birlashgan Arab Amirliklari, Yangi Zelandiya, Avstraliya kabi mamlakatlarda mehnat yoki ta'lim faoliyati bilan shug'ullanish huquqiga ega bo'lishingiz mumkin.**

## USMLE imtihoni

### 3 qismdan tashkil topgan:

**Step-1** fundamental fanlarga (Anatomiya, fiziologiya, biokimyo va boshqa) oid bilimlaringizni sinovdan o'tkazadi. Bu qismda inson organizmida sodir bo'ladigan barcha molekulyar protsesslarni normasidan patologiyasigacha bilish talab qilinadi.

**Step-2** barcha klinik fikrlashingizga oid bilimlaringizni tekshiradi.

Ushbu imtihonda asosiy urg'u qo'yilgan tashxisingizni qanday tasdiqlash va davolashni nimadan boshlashga qaratiladi. Imtihonning eng muhim savoli: Qanday yo'l tutish kerak?

### Ushbu imtihon 2 qismga bo'lingan:

Step 2 CK (Clinical Knowledge) - klinik fanlarga (kardiologiya, nevrologiya, akusherlik va h.k.) oid bilimlaringizni tekshiradi.

Step 2 CS (Clinical Skills) - klinik ko'nikmalingizni (bemor ko'rigi, bemor bilan muloqot, tashxis qo'yish yo'li va h.k.) sinovdan o'tkazadi.

Step 3 klinik bilimlaringizni va ularni tajribada qanday darajada qo'llashingizni tekshiradi (step 2 CKdan yuqori bo'lgan talablari bilan farqlanadi).

Ushbu imtihonlar qanday bilim darajasiga yoki amaliy

konikmaga ega ekanligidan qat'iy nazar barcha tibbiyot oliygoh talabalari uchun majburiy ekanligi ushbu tizimni haqqoniy va standart tashkil qilinganligini ko'rsatadi.

AQShda o'qish yoki shifokor bo'lib ishlash niyatida bo'lgan barcha chet el fuqarolari ham ushbu imtihonlarni topshirishi shart. Imtihonga ro'yxatdan o'tish va imtihon topshirish pullik. Imtihonlarni dunyoning turli mamlakatlarida joylashgan ixtisoslashgan test markazlarida topshirish mumkin (ushbu prometric markaz O'zbekistonda mavjud emas). Step 1 va 2 topshirilganidan keyin chet el shifokorlariga ECFMG (Educational Commission for Foreign Medical Graduates) sertifikat beriladi. Ushbu sertifikat ularning tibbiyot bo'yicha bilimi va diplomini tasdiqlovchi hujjat hisoblanadi.

Ushbu sertifikat chet el shifokorlari diplomini AQSh tibbiyot fakulteti bitiruvchisining diplomiga tenglashtiradi va AQSh hududida tibbiyot bilan shug'ullanishga, AQShning rezidenturasida o'zingiz istagan yo'nalish bo'yicha o'qishga ruxsat beradi. Rezidenturada o'qish mutlaqo bepul bo'lib rezidentlarga AQSh davlati tomonidan yiliga \$50 000 oylik ish haqi to'lanadi. Rezidenturada o'qish tanlagan yo'nalishingizga qarab o'rtacha 3 yildan 7 yilgacha davom etadi.

## USMLE imtihonining muvofiqlik mezonlari qanday?

USMLE imtihoniga kirish huquqiga ega bo'lish uchun ariza topshirish vaqtida va imtihon kuni quyidagi toifalardan birida bo'lishingiz kerak. Mana muvofiqlik mezonlari:

Tibbiyot talabasi AQSh yoki Kanada tibbiyot maktabiga o'qishga kirgan yoki bitiruvchisi va LCME, OR tomonidan akkreditatsiya qilingan MD darajasiga olib keladi.

Talaba AQSh tibbiyot maktabiga rasman ro'yxatdan o'tgan yoki uni bitirgan va COCA yoki Osteopatik kollejni akkreditatsiya qilish komissiyasi tomonidan akkreditatsiya qilingan DO darajasiga yetaklaydi.

Tibbiyot talabasi AQSh va Kanadadan tashqarida joylashgan, ammo Butunjahon Tibbiyot maktablari katalogida ro'yxatga olingan va ECFMG muvofiqlik talablariga javob beradigan tibbiyot maktabiga o'qishga kirgan yoki bitiruvchisi.

## USMLE ni necha marta topshirishingiz mumkin?

Bir kishiga har bir qadamda ko'pi uchun to'rtta urinishga ruxsat beriladi. To'rt marta urinishdan so'ng USMLE bosqichidan o'ta olmagan imtihon topshiruvchilar imtihonga ariza berish huquqiga ega emaslar.

## Qaysi USMLE bosqichli imtihon eng muhim hisoblanadi?

USMLE 1-bosqich - bu sizning tibbiy karerangizda topshiradigan eng muhim imtihondir, chunki u qaysi tibbiy mutaxassisliklarga rioya qilishingiz va qaysi turdagi rezidentlik dasturiga mos kelishini aniqlaydi.

## USMLE uchun qanday yaxshi ballni hisobga olish kerak?

1-bosqichga o'tish uchun minimal ball 194, milliy o'rtacha ball esa 229. Umuman olganda, USMLE 1-bosqichida 230 dan 245 gacha ball yaxshi, 245 dan 255 gacha bo'lgan ball esa ajoyib natija hisoblanadi.

**Sh.AHMADALIYEV.**

# AQShda tibbiyot universitetiga kirish qiyin, ammo uddalasa bo'ladi

**Qo'shma Shtatlarda shifokorlik eng ko'p pul topadigan sohalardan biri hisoblanadi.**

AQShga sobiq ittifoqdan kelgan shifokorlar internetdagi maxsus forumda bir-biri bilan muntazam muloqotda bo'ladi. Ular orasida Samarqand, Toshkent, Andijon Tibbiyot institutlarini bitirgan va hozir AQShda imtihonlarni topshirib, vrach bo'lib ishlayotganlar bor.

Tibbiyot institutiga kirish hamisha qiyin bo'lgan. Kimyo va biologiya kabi fanlarni ona tilida egallash nechog'lik mashaqqatli ekanini aytib o'tirishga hojat yo'q. Tasavvur qiling, o'zbekistonlik talaba yoki mutaxassis chet elda vrachlikka o'qish va ishlash uchun necha dovon va to'siqlardan o'tishi kerak?

Bu yerda shifokor bo'lib ishlash uchun

sizdan talab qilinadigan hujjat bu - vrachlik diplomi. O'zbekistonda berilgan diplom AQShda tan olinishini aytish joiz. Diplom nusxasi va O'zbekistondagi tibbiyot oliygohida olgan baholar hamda o'tilgan darslar soati qayd etilgan hujjat nusxasi AQShdagi maxsus rasmiy idoraga yuboriladi. Ana shundan keyin sizga «USMLE» nomli maxsus testni topshirishga ijozat beriladi. Uch bosqichdan iborat ana shu testdan o'tgach Amerikada shifokor bo'lib ishlash uchun litsenziya beriladi.

Birinchi va ikkinchi bosqich anatomiya, biokimyo, mikrobiologiya, fiziologiya, pediatriya, akusherlik, ginekologiya, jarrohlik va boshqalarni o'z ichiga oladi. Har bir bosqich taxminan 7-8 soat davom etadigan bu imtihonlardan muvaffaqiyatli

o'tish uchun ingliz tilini bilish qanchalik ahamiyatli?

Darvoqe, AQShdagi chet ellik shifokorlar boshqalardan farqli ravishda TOEFL imtihonini topshirmaydi. Ular uchun alohida test joriy etilgan.

Imtihonning uchinchi bosqichi sanalmish bu sinov davomida bemor bilan muomala qilish, unga tashxis qo'yish malakasi tekshiriladi. Sinov paytida bemorning rolini taklif qilingan aktyor ijro etadi. Vaziyat yanada hayotiy bo'lishi uchun u amerikacha dialekt-shevada gaplashadi.

Bu imtihonlarni O'zbekistonda topshirish imkoniyati yo'q. Bunday markazlar ayni damda Kanada, Yevropa, Armaniston, Saudiya Arabistoni, Birlashgan Arab Amirliklari, Turkiya va Qo'shma Shtatlarda

topshirish mumkin.

Kasbiy tayyorgarlik nuqtai nazaridan AQShdagi shifokorlar Markaziy Osiyolik hamkasblaridan ustunroqmi?

Ikki davlatdagi ta'lim tizimi va davomiyligi tubdan farq qiladi. Bir jihatdan balki ustunroqdir. Gap hatto AQShdagi ta'lim jarayonining ko'proq davom etishida ham emas. Mutaxassislarning saviyasi va malakasida. Lekin bu yerda shifokorlarning ishlashi va tajriba orttirishi uchun imkoniyat ko'proq, albatta.

Aytganday, AQShda tibbiy ilmiy xodim bo'lib ishlash uchun O'zbekistonda olingan vrachlik diplomining o'zi kifoya. Maxsus imtihon topshirish sharti faqat amaliyotchi shifokorlarga qo'yiladi, xolos.

**«Amerikaovozi»**

**Bilasizmi?**

## TALABALAR BILAN UCHRASHUV

**O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vaziri Amirillo Inoyatov institutga tashrif buyurib, bu yerda yaratilgan imkoniyatlar bilan yaqindan tanishdi.**

Dastlab, A.Inoyatov anatomiya kafedrasida bo'lib, professor-o'qituvchilar bilan suhbatlashdi. Muloqot davomida anatomiya kafedrasida professori Y.Nishonov, o'zining yangi chop etilgan ilmiy kitobini vazirga taqdim etdi.

Institutda yangi tashkil etilgan simulyasion markaz bo'ylab sayohat uyushtirildi. U yerdagi mutaxassisliklar kesimida maxsus mulyajlar va zamonaviy texnik jihozlar bilan ta'minlangan xonalar mehmonlarga manzur bo'ldi.

Shundan so'ng institutning kichik majlislar zalida O'zbekiston Sog'liqni saqlash vaziri Amirillo Inoyatov ishtirokida uchrashuv bo'lib o'tdi. Samimiy ruhda o'tkazilgan ushbu tadbirda oliygoh o'qituvchi va talabalari ishtirok etdi.

Rektor Akmal Sidikov o'tgan bir yil davomida institutda amalga oshirilgan ishlar haqida qisqacha ma'lumotlar berib

o'tdi. Shuningdek, qayta ta'mirlash ishlari, erishilgan yutuqlar va talabalar hamda pedagog kadrlarning ilmiy salohiyatini oshganligi, nafaqat respublika balki dunyo miqyosida ham reytingda yuqori o'sishlar bo'lganligini so'zlab berdi.

Tadbir davomida Sog'liqni saqlash vaziri A.Inoyatov o'z fikr-mulohazalari bilan uchrashuvga kelganlar bilan o'rtoqlashdi.

"Bugun 36 mln aholi bizdan boshqacha tibbiyotni kutyapti. Buni kim qiladi? Albatta, bu ishlarni ta'lim olayotgan talabalar, ta'lim berayotgan o'qituvchilardan kutamiz", dedi vazir A. Inoyatov.

Uning ta'kidlashicha, mamlakatimizda har bir oliy ta'lim maskani xalqaro maydonga aylanishi zarur. Faqat rahbarga ko'p narsa bog'liq. Yoshlarga imkoniyat yaratish uchun avval, pedagoglarga imkoniyat yaratish kerak".

"Inson a'zolarini ko'chirib o'tkazishni joriy qilsak, yangi tibbiyot xodimlari paydo bo'ladi..." dedi Inoyatov.

Bugungi kunda tibbiy ta'limni rivojlantirish, jahon tajribalarini o'zlashtirish va o'rgatishda nafaqat o'qituvchi, balki talabalarning ham harakati, tashabbusi, tanlagan kasbiga bo'lgan hurmat va sadoqati muhim rol o'ynashini ta'kidladi.

**M.DEHQONOVA.**



SO'NGGI XABAR

# Biz sizlardan faxrlanamiz!

## "INTELEKTUAL IZLANUVCHI"



shuki, biz yanada ilm darajasini, bilim darajasini yuksaklarga ko'tarish va ushbu soha vakillarini yanada ishga bo'lgan layoqatini kuchaytirib, bularga tadbir yakunida o'zimizning esdalik sovg'alari va faxriy yorliqlarni topshirdik.

Qatnashuvchilarning topshirgan ilmiy ishlari ko'rib chiqilib, sovringa munosib topilganlar taqdirlandi. Ko'krak nishoni sohiblaridan biri o'z taassurotlari bilan o'rtoqlashdi.

—«Best Publication» ilmiy tadqiqotlar markazining intellektual izlanuvchi yo'nalishi bo'yicha ko'krak nishoniga ega bo'ldim va bu albatta prezidentimizning biz yoshlarga, qolaversa, barcha sohalarda o'z ustida ishlayotgan olimlarga berilayotgan imkoniyatlardan biri bo'ldi, — deydi institut talabasi Jamshidbek Usmonov. —"Yangi O'zbekistonda innovasion tadqiqotlar" xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya doirasidagi "Intellektual izlanuvchi" Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi miqyosida tashkil etilgan xalqaro ilmiy-amaliy ko'rik tanloviga ilmiy rahbarim, kardiolog, ichki kasalliklar kafedrasida assisenti Go'zal Shamsiddinova bilan birgalikda "Hazm qilish a'zolari kasalliklari o'tkir va surunkali gastrid" mavzusida yozilgan maqola taqdim etilgan edi. Mazkur maqolada sog'lom turmush tarzini o'zimizdan boshlashimiz kerakligi, hozirda keng tarqalgan kasalliklardan biri — bu oshqozon me'da kasalliklari, asosiy sababi esa xastalikning ovqat rejimini buzilishi oqibatida kelib chiqishi haqida ilmiy fikrlar keltirilgan.

Ilmiy ishlarim kengash tomonidan ko'rib chiqilib, meni ko'krak nishoni bilan taqdirlashdi.

Tanlov ishtirokchilariga "Intellektual izlanuvchi" esdalik nishoni hamda esdalik nishon belgisi, guvohnoma, sertifikat, tashakkurnoma, maqolalar jamlangan to'plam hamda qimmatbaho sovg'alar tantanali ravishda taqdim etildi.

Har yili «Best Publication» ilmiy tadqiqotlar markazi turli yo'nalishlarda ko'rik-tanlovlarni o'tkazib keladi. Respublika yoshlar ilmiy kengashi hamda mazkur markaz hamkorligida sammit tashkil etildi. Tanlovda g'olib deb topilganlar e'tiborsiz qoldirilmadi.

Ko'plab soha vakillari yillar davomida to'plagan bilimlariga tayanib, "Intellektual izlanuvchi" ko'krak nishoni uchun tashkil etilgan tanlovda ishtirok etishdi.

—Bugungi kunda yosh olimlarga, yoshlarga va ta'lim soha xodimlariga juda katta e'tibor berildi. Yig'ilishimizda 35 foizi yoshlar va 20 foizi ayol olimlar hamda dosent professorlar 27 foizni tashkil etdi, — deydi Respublika yoshlar ilmiy kengashi raisining birinchi o'rinbosari Musajon Farhodov. — Bugungi tadbirimizdan ko'zlangan maqsad



## SOG'LOM TURMUSH TARG'IBOTCHISI

Gulmira Fayzullaeva, "Davolash ishi" yo'nalishi 3-guruh, 4-bosqich talabasi.

O'tgan yillar mobaynida onlayn shaklida o'tkazilgan xalqaro va mahalliy konferensiyalarda, muvaffaqiyatli qatnashganligi uchun sertifikat hamda tashakkurnomalar bilan e'tirof etilgan. Shuningdek, mutaxassislikka oid intellektual turnirlarda, olimpiadalarda faol ishtirok etgan. Ayniqsa, 2022 yil aprel oyida Rossiya Federatsiyasida bo'lib o'tgan «Luchshaya nauchnaya rabota» onlayn tanlovida qatnashib, faxrli 3 - o'rinni egallagani va diplom bilan taqdirlangani diqqatga sazovordir.

Shuningdek, Renessans ilmiy markazi va nashriyot uyi tomonidan «Renessans davri: Ilmiy tadqiqotlar yetakchisi» Xalqaro ilmiy-amaliy tanlovda, Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi miqyosida tashkil etilgan Xalqaro ilmiy amaliy anjuman va ko'rik tanlovlari ham faol qatnashib, ko'krak nishoni, guvohnoma, diplom va

tashakkurnomalar bilan taqdirlangan.

O'z ustida tinimsiz ishlaydigan iqtidorli talabaning kelajakdagi rejaları ko'p. Aholi o'rtasida sog'lom turmush tarzini shakllantirish, oila salomatligini asrash kabi mavzularida tengdoshlari orasida davra suhbatlarini ham tashkil qilishga ulgurmoqda.

U tibbiy targ'ibotda faol. "Kommunal va mehnat gigienasi" assistenti, o'qituvchi O'g'iloy Abdullaeva rahbarligida yozilgan "Maktabgacha yoshdagi bolalarda sog'lom turmush tarzi asoslarini shakllantirish" mavzusidagi maqolasi ham bunga misol bo'la oladi.

Gulmira Fayzullaevani kelajakda soha rivojiga hamda yurtimiz taraqqiyotiga kamarbasta bo'la oladigan komil va barkamol avlod bo'lishiga ishonamiz. Bu yo'lda esa unga kuchli iroda, sabr-toqat, ulkan zafarlar hamda yuksak parvozlarni tilab qolamiz.

**M.QODIROV.**

**JAMOAT SALOMATLIGI**

MUASSIS:  
Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi Farg'ona viloyati hududiy boshqarmasi tomonidan 6-sentabr 2021-yil №12-132 raqam bilan ro'yxatga olingan.

BOSH MUHARRIR:  
**Akmal SIDIKOV**  
NASHR UCHUN MAS'UL  
**I.ABDUJABBOROV**

Qog'oz bichimi: A-3  
Oyda bir marta o'zbek tilida chop etiladi

TAHRIRIYAT MANZILI:  
150105, Farg'ona shahar, Yangi Turon ko'chasi, 2-uy  
Tel.: (73) 243-06-62  
(94) 444-91-76

fmioz@mail.ru | fsti.uz



GAZETA BEPUL TARQATILADI

Gazeta «ZAKOVAT NASHRIYOT UYI» MCHJ bosmaxonasida ofset usulida chop etildi.

**BOSMAXONA MANZILI:**  
Kosonsoy shahri, Chorbog' ko'chasi, 17-uy.  
Bosmaxonaga 30.01.2023 yil, soat 16 00 da topshirildi. Topshirish vaqti: 17:00

Buyurtma:

Adadi: 500